

NAFAS OLISH ORGANLARINING TUZILISHI VA TOVUSH HOSIL QILISH HAQIDA

Tog‘aeva Adiba Ortiq qizi,
Musiqqa madaniyat fakultetning
II- bosqich talabasi

Muxamedziyanov Kamil Taxirovich,
Ilmiy rahbar, A.Qodiriy nomidagi
JDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa darslarini o‘qitishning sifati va samaradorligini oshirish va ayniqsa natijadorlikka erishishda «Musiqqa tinglash», «Musiqqa savodi», «Jamoaga bo‘lib kuylash» kabi o‘qitish shakllarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, talabalarning qiziqishiga qarab u yoki bu musiqiy cholg‘uga yollash kabi asosiy faoliyatlarni tashkil etish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqqa ta‘limi, musiqa savodxonligi, mutatsiya, qadriyat, an‘analar, urf-odat, qo‘shiq, aytm, bolalar qo‘shiqlari, vokal-xor mashqlari.

Jamiyat ravnaqi va milliy taraqqiyotni belgilashda yosh avlodning ma‘naviy tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. O‘z xalqining o‘tmish tarixini yaxshi bilish, ulug‘ ajdodlar merosidan baxramand bo‘lish bilan birga zamonaviy ilmlarni mukammal egallash, ezgu qadriyatlar ruhida kamol topish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bois jamiyatning uzoq kelgusidagi taraqqiyotiga bog‘liq rejalar tuzilayotganda yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Yurtboshimiz zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratib: “Hozirgi paytda qaysi zamonaviy soha yoki tarmoqni olmaylik ... bularni barchasining taraqqiyoti negizida avvalombor texnologiyalar turganini eng ilg‘or davlatlar va umuman, dunyo tajribasi misolida ko‘rish va anglash qiyin emas” deb ta‘kidlaganlar. Mazkur jarayonni samarali amalga oshirish uchun ta‘lim muassasalarining moddiy texnika ta‘minotini bugungi kun talablari darajasida qayta jihozlash, ta‘lim jarayonida innovatsiyalardan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlashga xizmat

qiladigan shakl va vositalarni belgilash bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarning barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo'naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko'ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo'lga yo'naltirilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Chunki yaxshi fazilatli inson jamiyat boyligi, u to'g'ri tarbiya topmasa, uning xatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi. Buyuk Bedil ta'biri bilan aytganda "agar me'mor dastlabki g'ishtni tug'ri qo'ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi". Dastlabki tarbiya sabog'ini bolalar oilada oladi, turli yoshda fikrlar obrazi muayyan harakatlar, voqealar va kattalarning nutqini idrok etish natijasida shakllanadi. Yoshlarning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirishda musiqa san'ati ham alohida o'rin tutadi. Talabalarning ovozi ustida ishlash jarayonida ovoz unsurlari uyg'un xarakterda bo'lishi talab qilinadi. Ya'ni nafas, hiqildoq, nutq a'zolari va ovoz rezenatorlari bir-biriga bog'langan va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatgan holda harakatlanadi. To'g'ri uyg'unlashish natijasida murakkab ovoz apparati tizimi vujudga keladi. Bunda ovoz bog'lamlari oz miqdorda kuch sarf qilib, yuksak akustik samaraga erisha oladi. Ovoz apparatining barcha faoliyatini markaziy asab tizimi boshqaradi. Shu tufayli har bir tovush xonandaning musiqiy qobiliyati deb baholanishi kerak. Shu boisdan bo'lajak ijrochining ichki ma'naviy dunyosi katta ahamiyatga ega. Xonandaning musiqiy mafkurasi qancha yaxshi rivojlangan bo'lsa uning, ijrochilik madaniyati shuncha yuqori bo'ladi. Yosh xonandalarning musiqiy vokal eshitish qobiliyatlarini mukammal darajaga yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Vokal eshitish qobiliyati ovozning o'ziga xos (tembr) sifatlarini idrok qila bilishga va uning fiziologik shakllanishini tushinib yetishga yordam beradi.

Vokal pedagogikasida umumiy tamoyillar ishlab chiqilgan. Ularni barcha pedagoglar yosh xonandalarni tarbiyalashda qo'llab kelishmoqda. Har bir pedagog ushbu tamoyillarga rioya qilishi shart.

1. Xonandaning badiiy va texnik rivojlanish tamoyillari birligi.

Xonandaning ijro texnikasi rivojlanishi badiiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Badiiy maqsadlar u yoki bu texnik uslubni tanlash va tanlangan uslub ustida ishlash yo'llarini aniqlab beradi. Shu sababli musiqiy mushoxada badiiy did va keng ma'nodagi vokal qobiliyatlarini o'stirish va tarbiyalashni talab etadi. Demak mashg'ulotlarning barcha bosqichlarida badiiy rivojlanish texnik rivoj bilan uzviy birlikda bo'lishi kerak.

Xonandaning badiiy va texnik rivojlanishi haqida so'z yuritar ekanmiz, ushbu tamoyilni tushunishda rasmiyatchilik nuqtai nazardan voqif etishimiz lozim. Tabiiyki, dastlab o'quvchi va o'qituvchining diqqat-e'tibori ko'prok texnik belgilarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Mashg'ulotlarning so'nggi bosqichlarida esa o'quvchining artistik qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy ijrochilik masalalari asosiy o'rin egallaydi.

2. O'quvchiga bo'lgan shaxsiy munosabat tamoyillari.

Har bir o'quvchi betakror shaxs (fiziologik-anatomik, ruhiy, musiqaviy nuqtai nazarlardan), Shuning uchun ham vokal pedagogikasi tarbiya vositalariga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Ovoz apparatining o'ziga xos xususiyatlari ona tilining fonetik xususiyatlari bilan bog'langan bo'ladi. Buni nazarda tutgan holda har bir o'quvchi uchun maxsus mashqlar tuzish yaxshi samara beradi.

3. Mahoratni egallashda asta-sekinlik va muntazamlilik tamoyillari.

Mazkur tamoyil didaktikadan o'zlashtirilgan, biroq komanda tarbiyasi borasida qo'llanganda, u alohida ahamiyat kasb etadi. Ovoz rivojlanishi asta-sekinlik bilan kechadi, (markaziy tonlandan boshlab diapazon va dinamika imkoniyatlarini hisobga olgan holda). Vokal mashqlari muntazam ravishda oddiydan murakkabga, vazminlikdan tezlikka, musiqiy ijrochilik vazifalarini

murakkablashtirish tamoyiliga asoslangan bo'lishi kerak. Har bir o'quvchining murakkab dinamik repertuarga asta-sekinlik bilan etib kelishi juda muhim. Yosh xonanda, ovozning shakli va kuchidai qat'iy nazar dastlabki yillarda lirik asarlar asosida tarbiyalashi lozim.

4. Muntazam takomillashtirish tamoyili. Bu tamoyil mahoratni butun ijodiy hayot davomida tinmay rivojlantirish, unga sayqal berish muhimligini anglatadi. Saloxiyat faqatgina erishiladigan muvoffaqqiyat imkoniyatini belgilaydi. Xonanda san'atkorning yo'li esa - o'z ustida tinmay ishlash, mukammallikka intilish yo'lidir, "Men faqat iste'dodning kuchigina najatkor bo'lishiga ishonmayman", deb yozgandi F.I.Shalyapin. A.G.Rubinshteyn esa "Bequnt iste'dod halok bo'ladi, lekin qunt iste'dodsiz bo'lsada - shuxrat qozonadi" deb ta'kidlagan edi. Muntazam fidokorona mexnatgina xonandani mahorat cho'qqisiga olib boradi.

Vokal pedagogikasi quyidagi metodik ko'rsatmalarni tavsiya etadi:

1. Ko'krak - qorin nafasidan foydalanish.
2. Barcha ovozlarga xos bo'lgan past va yuqori ovozda kuylash shakllarini taminlovchi baland me'yor.
3. Ijro etilayotgan asar taxminidan kelib chiqqan holda turli balandlikdagi tovushlarni boshqarishda ko'krak va bosh rezonatorlaridan foydalanish.
4. Xiqildoqni erkin holatda tutish.
5. Yon naycha muskilini zo'riqtirmaslik.

Vokal ko'nikmalarini xosil qilishda mashqlar asosiy o'rin egallaydi. Bu o'quvchi bilan doim bog'lik bo'lgan eng oddiy musiqiy materialdir. To'plamga Italiya, Rossiya, Fransiya va Bolgariyada mashxur bo'lgan pedagoglarning mashqlari kiritilgan.

Ovoz turlanishiga qarab har bir mashq qulay tonallikka ko'chirilishi kerak. Yuqori ovozlarda mashqlarni bajarish uchun Fa-major tonalligi ma'qulroq bo'ladi, o'rta ovozlarda uchun Re-major, past ovozlarda uchun Do-major. Berilgan

mashqni ijro etishda ohang va ritmlarni aniq ifodalanishini sinchiklab kuzatish darkor. Xonanda mashqlarini birdan-bir, yagona maqsad deb bilmasligi kerak, balki ovozning tembr sifatlarini takomillashtiruvchi hamda texnik ko'nikmalarning rivoji uchun zarur bo'lgan vosita deb qaralishi lozim.

Agar o'quvchi dastlabki darslardan oq vokal mashqlariga rasmiyatchilik bilan emas, balki badiiy kayfiyatni ifodalovchi jarayon deb qarasa unda yutuq ko'prok bo'ladi. Bu kayfiyat avvaliga aytarli murakkab bo'lmasligi mumkin (major ladidagi harakatchan mashqlar shodlik holatini anglatadi, legato bilan berilgan uzun notalar Vatan tuyg'usiga xos, minor ladidagi mashqlar g'amginlikni ifodalaydi va hokazo). Bunday mashqlar o'quvchini kelgusida rasmiy ijrochilikdan saqlab, uni ma'noli kuylashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhorov N.V. Vokal asoslari. – T.: 2008. -314-b.
2. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. London., 2012. –p-140.
3. Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. T., 2009 -180-b.
4. Ma'ruzalar matni. – T.: O'zbekiston Davlat konservatoriyasi nashriyoti, 2008. -48-b.